

LALMI YER MAYDONLARINING NORMATIV QIYMATINI BAHOLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH

M.M.Jabborov O'zdavyerloyiha

davlat ilmiy loyihalash institutining

Qashqadaryo viloyat bo'linmasi mutaxassisi

Anotatsiya. Yerlarning holatini sifat jihatidan baholash ma'lumotlari muhim iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Uning ma'lumotlaridan iqtisodiyot tarmoqlarining turli-tuman masalalarini ijobiy xal etishda, jumladan yer solig'i stavkalarini belgilashda, yer uchun ijara haqi miqdorlarini aniqlashda, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorliklarini rejalashtirishda, ipotekani rivojlantirishda, atrof-muhit ekologiyasini barqarorlashtirishda, sug'urta tizimini joriy etish va takomillashtirishda va umuman, yerdan foydalanishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni ijobiy hal qilishda keng foydalaniladi.

Kalit so'zlar. Lalmi yerlar, qishloq xo'jaligi yerlari, yer monitoring, yer maydonlari.

IMPROVING THE MECHANISM FOR ASSESSING THE NORMATIVE VALUE OF VACANT LAND PLOTS AND ORGANIZING THEIR EFFECTIVE USE

M.M. Jabborov, specialist

of the Kashkadarya regional branch of the

Uzdavyerloyiha State Scientific Design Institute

Annotation. Qualitative assessment of land conditions is of great economic importance. Its data are widely used in the positive resolution of various issues in the economy, including setting land tax rates, determining land rents, planning crop yields, developing mortgages, stabilizing the environment, introducing and improving the insurance system, and generally in the positive resolution of all issues related to the organization of land use.

Keywords: Fallen lands, agricultural lands, land monitoring, land areas.

Mavzuning dolzarbligi. Yerlarning holatini sifat jihatidan baholash ma'lumotlari muhim iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Uning ma'lumotlaridan iqtisodiyot tarmoqlarining turli-tuman masalalarini ijobiy xal etishda, jumladan yer solig'i stavkalarini belgilashda, yer uchun ijara haqi miqdorlarini aniqlashda, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorliklarini rejalashtirishda, ipotekani rivojlantirishda, atrof-muhit ekalogiyasini barqarorlashtirishda, sug'urta tizimini joriy etish va takomillashtirishda va umuman, yerdan foydalanishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni ijobiy hal qilishda keng foydalaniladi. Ushbu maqsadga erishish uchun ishning oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- yerlarni baholashning nazariy masalalarini ko'rib chiqish;
- obyekt bo'yicha zaruriy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;
- qishloq xo'jalik massivida yerlarni sifat hisobini yuritish;
- tuman sug'oriladigan yerlarini sifat bahosini aniqlash va shu asosda yerdan foydalanishni tashkil etish;
- izlanishlar natijasi yuzasidan taklif va tavsiyalar berish.

Kirish. Hozirgi kunda dunyoda aholi soni yildan yilga ko'payishi va aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ortishi kuzatilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlarni aksariyat qismi qishloq xo'jaligi yerlaridan olinishi hech kimga sir emas. Bu esa yer resurslaridan samarali foydalanishni hamda doimiy nazorat qilishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, yer atrof-muhitning muhim tarkibi sifatida o'zining kenglik, relyef, iqlim, tuproq qatlami, o'simliklari, yer osti boyliklari, suvlari bilan tavsiflanganligi holda qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi, shuningdek xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini joylashtirishning kenglik asosi bo'lganligi sababli yer maydonlarini o'rganish masalalari yagona davlat yondashuvini talab qiladi. Bu esa o'z navbatida yer maydonlarini tizimli hamda majmualari tarzda kuzatuvlar asosida nazoratini amalga oshirish zaruratini belgilaydi. Bunday tizimli nazoratni amalga oshirish mexanizmini yer monitoringi deb ta'kidlasak mubolag'al bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 7-sentabr «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6061-son Farmoniga asosan.

Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilish sohasida samarali davlat nazoratini

amalga oshirishda:

- qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish;
- qishloq xo'jaligi yerlarining muhofaza qilinishini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi yerlarining me'yoriy qiymatini va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;
- tuproq bonitirovkasini o'tkazish, tuproq unumdorligini oshirish, tuproqshunoslik, geobotanikaga oid tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi.

Hozirgi kunda yer maydonlarini monitoring qilishda xaritalarning amaliy ahamiyati juda katta hisoblanib, har bir yer turi bo'yicha raqamli xaritalarni yaratish va ular yordamida monitoring ishlarini olib borish yuqori samara beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 24-fevraldagi «Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5006-son Qaroriga asosan «O'zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti tomonidan qishloq xo'jaligi yerlarini raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish, har bir ekinning ekilishi va monitoringi, qishloq xo'jaligi ekinlarining joylashtirilishi va noqonuniy holatlarni elektron

xaritalarga joylashtirish ishlari amalga oshiriladi. Joylashtirilgan ma'lumotlar

asosida esa qishloq xo'jaligi yerlarida tegishli tadbirlar belgilab boriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tarkibiga kiruvchi lalmi va yaylov yerlarning raqamli xaritasini tuzish va yangilab borish qishloq xo'jaligi yo'nalishini raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning bir qismi hisoblanadi. Bu borada avvalambor, raqamli xaritaning o'zi nimaligi va uni qanday tasavvur qilish kerakligi haqida to'xtalib o'tish lozim.

Qishloq xo'jaligi – bu murakkab iqtisodiy tizim. Uni tahlil qilish uchun analitik va integral jihatlarni o'z ichiga olgan tizimli yondashuv va shunga muvofiq ravishda tizimli xaritadan foydalanish kerak. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligi sohasida aniq dehqonchilikni amalga oshirishni zamonaviy raqamli (elektron) xaritalarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Biz tomondan olib borilgan tadqiqotlar lalmi yerlar monitoringini yuritish uchun zarur bo'lgan kartogarafik materiallarni raqamli texnologiyalar yordamida olish usulubiyotini takomillashtirishga qaratildi.

moqda va u yordamida quyidagi ishlar amalga oshiriladi: istalgan vaqtda tasvirga tushirish, ma'lumotlarni vaqtida yetkazish, katta maydonlarni qoplash, global qoplash, kelgusida xaritalarni yangilash uchun raqamli formatda saqlash hamda zamonaviy GAT texnologiyalari bilan moslashtirish.

Masofadan zondlash xarita tuzishda quyidagi maqsadlarda qo'llanilmoqda:

- konturli xarita tuzish;
- balandlikning raqamli modelini yaratish;
- asosiy mavzuli xarita tuzish.

Konturli xarita – yer qoplami (o'rmon, botqoqlik), drenaj, antropogen

obyektlar (shahar infratuzilmasi, transport tarmoqlari)ni tekislikda aniqlash va geojoylashtirishni o'z ichiga oladi. Konturli axborotlar asosan

katta masshtabda tasvirlashda ya'ni, shaharlarni rejalashtirishda, harbiy razvedkada, umumiy landshaft axborotlarida talab qilinadi.

Balandlikning raqamli modeli masofadan zondlash tasvirlaridagi joyni geometrik va radiometrik tuzatishni amalga oshirishda muhim sanaladi, hamda gorizontallar va joyning modelini yaratish imkoniyatini beradi va shu bilan bir qatorda tahlil qilish uchun boshqa axborotlar bilan ta'minlaydi.

Ma'lumotlarni integratsiyalash va fazoviy ma'lumotlarni yangilashni yengillashtirish maqsadida topografik va tematik axborotning raqamli ma'lumotlar bazasini yaratishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Topografik xaritalar balandlik gorizontallari va konturli tafsilotlardan tashkil topgan. Ular asosan fuqarolik va harbiy xizmatlarda asosiy ma'lumot sifatida xizmat qiladi.

Agar biz lalmi yerlarda yer monitoringini o'tkazishda kvadrokopter uchuvchisiz uchish qurilmalardan foydalansak, 100 gektar maydonda kuzatish ishlarini ikki soatda amalga oshiramiz. Vaholanki, avvallari bu ishlar uchun an'anaviy usulda juda ko'p vaqt sarflangan. Qishloq xo'jaligida bu kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish, unumdorlikni oshirish, ekinlar rivojini kuzatib borish va har bir qarich yerdan samarali foydalanishga olib keladi.



1.1-rasm. Monitoring qilishda foydalaniladigan PHANTOM 4 PRO uchuvchisiz uchish qurilmasi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga asosan O'zbekiston Respublikasi lalmi yerlar monitoringini tashkil etishni jadallashtirish, innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash va hukumat tomonidan bu borada belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish ushbu mavzuning asosiy mazmunini bildiradi.

Innovatsion texnologiyalar qo'llanilganda quyidagilarga erishiladi:

- mehnat unumdorligi;
- vaqt unumdorligi;
- sifat darajasining yuqoriligi;
- ma'lumotlarga avtomatik tarzda qayta ishlov berish;
- yer maydonining ustidan umumiy nazorat;
- yer maydonlarini xatlovdan o'tkazish;
- yuqori darajadagi aniqlik;
- ishchi kuchini kam talab qiladi

Xulosa. Ushbu tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida yerlarning tuproq bonitirovkasini o'tkazish hamda ushbu bonitirovka ma'lumotlari asosida sug'oriladigan yerlar va sug'orilmaydigan yerlarni sifat jihatidan baholash, normativ qiymatini aniqlash, qishloq xo'jaligi yerlarni miqdoriy hisobini yuritish ishlari o'rganildi.

O'tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, viloyatning sug'oriladigan ekin yerlari tuproqlarining o'rtacha boniteti ballarni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlar istiqbolda tuman yerlaridan foydalanishni oqilona tashkil etishda asosiy manba sifatida foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga"gi 60-son farmoni.**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 235 -sonli qarori.**
- 3. "O'zdayerloyiha" DILI "Qashvilyerloyiha" bo'linmasi ma'lumotlari.**
- 4. <https://www.fao.org/food-agriculture-statistics/data-release/data-release-detail>.**